

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI
UMUMIY YIG'ILISHINING BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA**

2025-yil 25-aprel

№ 3

Toshkent shahri

Soat: 11-00

B.Zokirov ko'chasi, 2A-uy

...

...

...

Yig'ilish kvorumi:

95,07 foiz

KUN TARTIBI

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning joylashgan yerini, pochta manzilini o'zgartirish.
4. Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartirishni tasdiqlash.
5. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
6. Bankning IT sohasi bo'yicha hisobotini tasdiqlash.
7. Bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash.

**KUN TARTIBIDAGI MASALALAR BO'YICHA OVOZ BERISH
NATIJALARI:**

Kun tartibidagi birinchi masala – Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

Ovoz berish natijalari:

Yoqlaganlar: 475 333 333 ta ovoz, 100 foiz;

Qarshilar: 0 ta ovoz, 0 foiz;

Betaraflar: 0 ta ovoz, 0 foiz.

Qaror qilindi:

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni uch kishidan iborat bo'lsin va quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

- Napasov Bunyodbek Rashidbek o'g'li - "Smart bank" aksiyadorlik jamiyatini

HR boshqarmasi boshlig‘i v.b., komissiya raisi;

- Xaitboyev Bunyod Baxtiyor o‘g‘li - “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatি Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, komissiya a’zosi;
- Salomov Sardor Fozil o‘g‘li - “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatি Korporativ biznes boshqarmasi bosh menejeri, komissiya a’zosi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala – Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.

Ovoz berish natijalari:

Yoqlaganlar: 475 333 333 ta ovoz, 100 foiz;

Qarshilar: 0 ta ovoz, 0 foiz;

Betaraflar: 0 ta ovoz, 0 foiz.

Qaror qilindi:

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishi reglamenti tasdiqlansin va u quyidagi tartibda tashkil etilsin:

- ma’ruzalar uchun 15 daqiqagacha vaqt ajratilishi;
- muhokama va muzokaralar, shuningdek ovoz berish uchun 5 daqiqagacha vaqt ajratilishi.

Kun tartibidagi uchinchi masala – Bankning joylashgan yerini, pochta manzilini o‘zgartirish.

Ovoz berish natijalari:

Yoqlaganlar: 475 333 333 ta ovoz, 100 foiz;

Qarshilar: 0 ta ovoz, 0 foiz;

Betaraflar: 0 ta ovoz, 0 foiz.

Qaror qilindi:

3.1. Bankning joylashgan yeri, pochta manzili Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shaxrisabz ko‘chasi 2-uyga o‘zgartirishga rozilik berilsin.

3.2. Bank Boshqaruvi (A.To‘rayev):

amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq yangi manzildagi binoning, uning muhofaza qilinishi, uskunalar, tashkiliy-texnik vositalar bilan jihozlanishi va dasturiy ta’minoti Markaziy bank talablariga muvofiqligi to‘g‘risidagi Toshkent shahar Markaziy banki bosh boshqarmasining xulosasi olinishini ta’minlasin;

belgilangan tartibda ijara shartnomasi hamda bino ta’minoti va saqlash (ekspluatatsiya) xarajatlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish shartnomalari tuzilsin;

bankning joylashgan yeri, pochta manzili o‘zgarishi munosabati bilan o‘rnatalgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin hamda belgilangan tartibda e’lon qilinsin.

Kun tartibidagi to‘rtinchi masala – Bank Ustaviga kiritilgan o‘zgartirishni tasdiqlash.

Ovoz berish natijalari:

Yoqlaganlar: 475 333 333 ta ovoz, 100 foiz;

Qarshilar: 0 ta ovoz, 0 foiz;

Betaraflar: 0 ta ovoz, 0 foiz.

Qaror qilindi:

4. Bank Ustaviga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

Kun tartibidagi beshinchi masala – Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Ovoz berish natijalari:

Yoqlaganlar: 475 333 333 ta ovoz, 100 foiz;

Qarshilar: 0 ta ovoz, 0 foiz;

Betaraflar: 0 ta ovoz, 0 foiz.

Qaror qilindi:

5. Bankning tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oltinchi masala – Bankning IT sohasi bo‘yicha hisobotini tasdiqlash.

Ovoz berish natijalari:

Yoqlaganlar: 475 333 333 ta ovoz, 100 foiz;

Qarshilar: 0 ta ovoz, 0 foiz;

Betaraflar: 0 ta ovoz, 0 foiz.

Qaror qilindi:

6. Bankning IT sohasi bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq hisoboti ma’qullansin va tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ettinchi masala – Bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma’qullah.

Ovoz berish natijalari:

Yoqlaganlar: 475 333 333 ta ovoz, 100 foiz;

Qarshilar: 0 ta ovoz, 0 foiz;

Betaraflar: 0 ta ovoz, 0 foiz.

Qaror qilindi:

7. Bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy

yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar 4-ilovaga muvofiq ma’qullansin..

...

...

...

Yig‘ilish raisi

imzo

Sh. Tashpo‘lov

Yig‘ilish kotibi

imzo

T. Nurmuratov

Ko ‘chirma asliga to ‘g‘ri:

